



## 2017-2018 YILLARDA SODIR ETILGAN AVTOAVARIYALAR, ULARDAN O'LIM VA JAROHATLANISH KO'RSATKICHLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

**Jumaniyozov K.Y., Olimova M.M.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urgench filiali

Xorazm, Urgench

**Kirish.** Barcha sohalar kabi mamlakatimizda avtomobil transporti va kommunikatsiyalari ham rivojlanib bormoqda. Bunday o'zgarishlar aholining ijtimoiy rivojlanishi darajasi bilan bog'liq muammoning eng ayanchlisi insonlarning jismoniy talofat olishlaridir. Bu esa jamiyatimizning ijtimoiy muammosidir.

**Tadqiqot maqsad.** Xorazm viloyatida 2017-2021 yillar davomida sodir etilgan YTH, ulardan o'lim va jarohatlanish ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganish hamda baholashdan iborat bo'ldi.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Xorazm viloyati yo'l patrul xizmatining 2017-2021 yillar bo'yicha avtohalokatlar to'g'risidagi hisobotlarida qayd etilgan ma'lumotlar doirasida o'rganildi. Olingan ma'lumotlarni statistik taxlil qilishda ijtimoiy-gigienik va sanitariya statistik usullardan keng foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Xorazm viloyatida jami 5 yil davomida 1343 ta YTH sodir etilgan. Ushbu sodir etilgan yo'l transport hodisasidan 420 nafar insonlar hayotdan ko'z yumgan va 1067 nafar insonlar turli tarzdagi tan jarohati olganlar.

Agar 2017-2021 yillar davomida sodir etilgan YTH, ulardan o'lim va jarohatlanish ko'rsatkichlarini alohida yillar bo'yicha tahlil qilganimizda quyidagi natijalarni oldik. 2017 yilda jami  $263 \pm 1,08\%$  ta YTH sodir bo'lgan va u 2017-2021 yillarda sodir bo'lgan jami YTHlarining (1343 ta)  $19,6\%$  ni tashkil qiladi. SHu yili YTHlariga uchragan fuqarolarning  $94 \pm 2,02\%$  nafari avtoavariyalardan vafot etgan. Bu ko'rsatkichni jami 5 yilda YTHlari tufayli vafot etganlar soniga nisbatan taqqoslasak  $22,4\%$  ni tashkil qiladi. Va nihoyat jami 5 yilda 1067 nafar inson YTH tufayli jarohatlangan. 2017 yilda esa YTHdan  $210 \pm 1,21\%$  nafar inson jarohatlangan. Bu ko'rsatkich 2017-2021 yillarda jarohatlanganlarning  $19,7\%$  ni tashkil qiladi.

2019 yilda jami  $242 \pm 1,04\%$  ta YTH sodir bo'lgan va u 2017-2021 yillarda sodir bo'lgan jami YTHlarining (1343 ta)  $18\%$  ni tashkil qiladi. SHu yili YTHlariga uchragan fuqarolarning  $78 \pm 1,89\%$  nafari avtoavariyalardan vafot etgan. Bu ko'rsatkichni jami 5 yilda YTHlari tufayli vafot etganlar soniga nisbatan taqqoslasak  $18,6\%$  ni tashkil qiladi. 5 yil davomida jami 1067 nafar inson YTH tufayli jarohatlangan. 2019 yilda esa YTHdan  $192 \pm 1,17\%$  nafar inson jarohatlangan. Bu ko'rsatkich 2017-2021 yillarda jarohatlanganlarning  $17,9\%$  ni tashkil qiladi.

2021 yilda jami  $335 \pm 1,16\%$  ta YTH sodir bo'lgan va u 2017-2021 yillarda sodir bo'lgan jami YTHlarining (1343 ta)  $25\%$  ni tashkil qiladi. SHu yili YTHlariga uchragan fuqarolarning  $82 \pm 1,76\%$  nafari avtoavariyalardan vafot etgan. Bu ko'rsatkichni jami 5 yilda YTHlari tufayli vafot etganlar soniga nisbatan taqqoslasak  $19,5\%$  ni tashkil qiladi. Va nihoyat jami 5 yilda 1067 nafar inson YTH tufayli jarohatlangan. 2021 yilda esa YTHdan  $272 \pm 1,80\%$  nafar inson jarohatlangan. Bu ko'rsatkich 2017-2021 yillarda jarohatlanganlarning  $25,5\%$  ni tashkil qiladi.

**Xulosa.** Tahlillar shuni ko'rsatadiki eng ko'p YTH 2021 yilda, eng kam YTH 2019 yilda sodir bo'ldi. Eng ko'p YTH laridan o'lganlar 2017 yilda, eng kam YTH laridan o'lganlar 2019 yilda sodir bo'ldi. Eng ko'p YTH laridan jarohatlanganlar 2021 yilda, eng kam YTH laridan jarohatlanganlar 2019 yilda sodir bo'ldi.